

MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISHI VA AFZALLIKLARI**Zokirova Diyora Iqboljon qizi***Toshkent moliya instituti talabasi***Olqarova Zarina Nosir qizi***Toshkent moliya instituti talabasi*

XXI asr-axborot-texnologiyalari asrida zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini takomillashtirish, ma'lumotlarni uzatish (qabul qilish, qayta ishlash), internet xizmatlaridan keng miqyosda foydalanish va zamonaviylashtirish mamlakatimiz bank tizimidagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan, dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bank tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi, zamonaviy bank axborot tizimlarining samaradorligini oshirish hamda banklar tomonidan aholi, tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini - interaktiv xizmatlarini kengaytirish, bank xizmatlarining sifatini oshirishga katta turtki bo'ladi. Shu sababli, banklar va mijozlarga ko'proq qulaylik yaratib beruvchi – "Raqamli banking" lar, ya'ni masofaviy bank xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda. "Raqamli banking" bu- bank xizmatlari internet orqali amalga oshiriladigan onlayn bank tizimiga o'tishdir. "Onlayn" yoki "Internet banking" esa bank mijozlariga bir qator moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi sistemalaridir. "Raqamli banking" tizimi jarayonlarning yuqori darajada avtomatlashuvi, xizmatlarning veb-saytlarga asoslanishi, bank mahsulotlarini yetkazib berishni ta'minlovchi dasturiy ilovalarning mijozlarga moliyaviy axborotga kompyuter, mobil telefon va bankomatlar orqali bog'lanish imkoniyati mavjudligiga asoslanadi. Banklarning masofadan turib xizmat ko'rsatishga o'tishi nafaqat banklarning o'ziga, balki iste'molchilarga ham foyda keltiradi. Respublikada masofadan turib ko'rsatiladigan bank xizmatlaridan muntazam foydalanadigan mijozlar kundan-kunga oshib bormoqda. Lekin aholining moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi va ba'zi hollarda naqdsiz hisob-kitoblarga ishonmaslik raqamli xizmat ko'rsatishning tarqalish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda. Ammo ta'kidlash lozimki, banklarning raqamli xizmatlarga o'tishi, uzoq muddatli va katta miqdorda mablag' ajratishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ifodalash mumkin:

- naqd pul muomalasini va bankdan tashqari pul aylanmasini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi;

- bank xizmatlaridan masofaviy tarzda keng xalq ommasi foydalanishi uchunqulayliklar yaratilishi va aholining bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi;

- banklarning yangi biznes-modeli asosida moliya bozoridagi o'rni mustahkamlanadi va imkoniyatlari kengayadi;

- intellektual texnologiyalarga asoslangan dasturlarni joriy qilish orqali bank mijozlari qaror qabul qilishi uchun ma'lumotlar shakllantiradi;

Jarayonlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz hududida masofadan xizmat ko'rsatuvchi banklar faoliyati, asosan, pandemiya (COVID-19 tarqalishi) jarayonida jadallashdi va uning ahamiyati bu sharoitda aniqroq namoyon bo'ldi. Undan oldin "raqamli banking" umuman yo'q edi, - deb bo'lmaydi, albatta. Lekin pandemiya bizga yangi asryangilanish, texnologiyalar zamonida bir joyda turib qolmaslik zarurligi, o'zgarish payti yaqinlashganligi va shunday paytlar bo'ladiki, an'anaviy tizimdan foydalanish noqulay bo'lishini, banklar misolida ko'rsatib berdi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, insonlarning bir joyga ommaviy to'planishi qonun bilan ta'qiqlandi. Biroq, ma'lumki insonlarning bank xizmatlaridan foydalanishlarini cheklab bo'lmaydi. O'z navbatida, banklar ham o'z mijozlariga odatdagidek xizmat ko'rsatishga imkon yo'q. Mana shu vaziyatda "raqamli banking" insonlar va banklar orasida ishonchli vositachi sifatida xizmat qildi. "Raqamli banking" tizimini shakllantirish uchun banklar tomonidan ko'plab bankomatlar o'rnatildi. Oldin bu bankomatlar 2 yoki 3 ta opsiya bajara olgan bo'lsa, endi ularning imkoniyatlari ancha kengaytirildi. Endi mijozlar o'zaro turli xil ilovalar orqali pul almashinuvini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratildi (Click, Oson, Apelsin). Elektron hamyondagi pul jamg'armasini bilish terminal orqali emas, qisqa kod orqali aniqlanilishi ancha keng yoyildi. Ko'p hujjat va vaqt talab qilinadigan bank xizmatlari – kreditlar qisqa vaqt ichida, ortiqcha ovoragarchiliksiz birgina mobil telefon orqali taqdim etildi. Omonatga mablag' qo'yish masalasi ham kredit qatori osonlashdi. Ilovaning dastur interfeysi yordamida iste'molchilar uchun turli foizlardagi kredit va omonatlar tavsiya etildi va ma'qul bo'lgan shartnoma asosida berila boshlandi. Turli xatoliklar yuzasidan aholi murojaatlarini tinglovchi "Call center" lar faol ish yuritdi. Yuqoridagi modernizatsiya jarayoni esa, "raqamli banking" taraqqiyoti uchun zamin yaratdi. "Raqamli banking" ning yana bir jihati shundaki, insonlar va banklarni bog'lashda naqd pullar emas, elektron valyuta asosiy rol o'ynaydi. Bu o'zo'zidan plastik kartalar bilan bog'liq. Plastik karta-elektron hamyon vazifasini bajarib, uning yordamida bank bilan onlayn muloqot jarayonlari

amalga oshiriladi. Shu sababli, bank xizmatlari takomillashgani sari, kartalar soni ham ortib boradi.

Bugungi mamlakatimiz bank tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilishi natijasida masofaviy xizmat ko'rsatishning quyidagi uch turi keng qo'llanilmoqda: Internet-banking- internet texnologiyasi asosida bank xizmatlari ko'rsatilishi tizimi bo'lib, bu mijozlar o'zlarining ixtiyoriy kompyuteridan bank xisob raqamlari bilan operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini berdi; SMS-banking – bank mijozlariga SMS orqali xisob raqamlari va operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib berish imkoniyatini beruvchi tizim hisoblanadi; Mobil-banking- bankning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi bo'lib, mijozlarga planshet, smartfon va oddiy telefon orqali bank operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini beradi; - Kartalar soni - Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan foydalanuvchi soni 515 Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu turdagi xizmatlarning rivojlanishi ko'plab banklar ochilishi sababli ham jadallashdi. Negaki, banklar qancha ko'p bo'lsa raqobat ham kuchayadi. Ya'ni har bir bank, boshqasiga qaraganda o'z mijozlariga ko'proq imkoniyat yaratishga intiladi. Yaqin yillar ichida, masofaviy xizmat ko'rsatish ham kelajak talabiga aylanadi,- deb bema'lol aytishimiz mumkin.. Buning natijasida mamlakatimiz aholisi uchun yanada ko'proq qulayliklar yaratilishiga ishonamiz.